

**QORAQALPOG‘ISTON
RESPUBLIKASI
BERUNIY TUMANI
HOKIMINING
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI
BERUNIY RAYONI
HAKIMININ
SHESHIMI**

2021 - yil 4 - dekabr

130-13-182-Q/21

Beruniy tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-noyabrdagi “Meva-sabzavotchilik va uzumchilikda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida dehqon xo‘jaliklarining ulushini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-20-sonli hamda shu xususidagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2021-yil 29-noyabr kungi 166-13-0-Q/21-sonli qarorlari haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-noyabrdagi “Meva-sabzavotchilik va uzumchilikda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida dehqon xo‘jaliklarining ulushini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-20-sonli hamda shu xususidagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2021-yil 29- noyabr kungi 166-13-0-Q/21-sonli qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasining Mahalliy Davlat hokimiyati to‘g‘risidagi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-noyabrdagi “Meva-sabzavotchilik va uzumchilikda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida dehqon xo‘jaliklarining ulushini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-20-sonli hamda shu xususidagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2021-yil 29-sentabr kungi 166-13-0-Q/21-sonli qarorlari ijro uchun rahbarlikka olinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yuqoridagi qarori bilan quyidagilar:

a) Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda fermer xo‘jaliklari va klasterlar foydalanishidagi past hosilli paxta va g‘alladan qisqartirilgan 200 ming gektar ekin maydonlarini 2022-2025-yillarda 1-1.13-ilovalariga muvofiq bosqichma-bosqich zaxiraga qaytarish;

zaxiraga qaytarilgan yer maydonlarini dehqon xo‘jaligi tashkil etgan holda sabzavotchilik, poliz, dukkakli, moyli ekinlar, kartoshka yetishtirish kabi loyihalarni amalga oshirish uchun fuqarolarga 0,10 gektardan 1 gektargacha bo‘lgan o‘lchamlarda ochiq elektron tanlov orqali 10 yilga ijaraga berish to‘g‘risidagi takliflari maqullanganligi;

b) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar

hokimliklari Qishloq xo'jaligi vazirligi (J.A.Xodjayeov) va Kadastr agentligi (F.K.Umarov) bilan birgalikda:

2021-yil 31-dekabrqa qadar tumanlar (shaharlar) hisobidagi bo'sh turgan va zaxiradagi qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarining davlat mulki sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazish;

mazkur qarorga 1-1.13-ilovalarda ko'rsatilgan yer maydonlari tegishli yildagi hosili yig'ib olingandan keyin tuman (shahar) hokimliklarining zaxirasiga belgilangan tartibda qaytarilishi va davlat mulki sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazish;

zaxiraga olingan yer uchastkalarini davlat mulki sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazish ishlari tuman (shahar) hokimliklari buyurtmasiga asosan amalga oshirilishini hamda tuman (shahar) mahalliy budjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirish;

davlat mulki sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan yer maydonlarining 0,10 gektardan 1,0 gektargacha bo'lgan hajmlarda lotlarga ajratilib, bir oy ichida ochiq elektron tanlovga qo'yish;

yer to'g'risidagi qonunchilik va ijara shartnomasi talablari bajarilmaganda, jumladan, ijaraga berilgan yer uchastkasidan oqilona foydalanilmaganda yerga bo'lgan huquq Yer kodeksi va "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi Qonunga asosan bekor qilinishi haqida dehqon xo'jaliklari orasida tushuntirish ishlari olib borish topshirilganligi;

Mazkur topshiriq ijrosini o'z vaqtida ta'minlamagan tuman (shahar) hokimlari qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortilishi haqida ogohlantirilganligi;

d) O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari Sh.M.G'aniev, qishloq xo'jaligi vaziri J.A.Xodjayeov, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va tumanlar hokimlariga:

yer uchastkalari ajratilgan dehqon xo'jaliklari tomonidan bog' va ekinlarning o'z muddatida ekilishi va parvarish qilinishiga ko'maklashish bo'yicha ishlarni **manzilli tashkil etish**;

ajratilgan yer maydonlarining tuproq sharoiti, yer ball boniteti, suv bilan ta'minlanganlik darajasi, hudud aholisining tajribasidan kelib chiqqan holda

"Bir hudud - bir mahsulot" tamoyili asosida mahsulot yetishtirishga asosiy e'tibor qaratish;

yer maydonlarida zarur agrotexnik tadbirlarni bajarish, o'g'it va suv bilan ta'minlash, infratuzilma obyektlarini yaratish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;

O'simliklar karantini va himoyasi agentligi (I.K.Ergashev) bilan birgalikda yer maydonlarida zararkunandalar hamda kasalliklar tarqalishining oldini olish maqsadida tizimli kuzatuvlarni tashkil etib, dehqon xo'jaliklariga bog' va ekinlarni himoya qilish ishlarini o'z vaqtida bajarishida amaliy yordam ko'rsatish;

dehqon xo'jaliklari bilan agrosanoat klasterlari, tayyorlov, qayta ishlash va eksport qiluvchi korxonalar (keyingi o'rinlarda - tadbirkorlik subyektlari) o'rtasida kooperatsiya aloqalarini

tashkil etishga alohida e'tibor qaratish;

dehqon xo'jaliklari va ular bilan kooperatsiya asosida ish tashkil etgan tadbirkorlik subyektlari o'rtasida urug'lik, ko'chat, mineral o'g'it va kimyoviy vositalar yetkazib berish, zaruriy agrotexnik xizmatlar ko'rsatish ishlarini tashkil etishda shartnomaviy munosabatlarni rivojlantirishga ko'maklashish;

qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yig'ish, tashish, saqlash, qayta ishlash va sotishning barcha bosqichlarini qamrab olgan kichik agrologistika markazlari faoliyatini yo'lga qo'yish choralari ko'rish topshirilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari (S.Urunbayev), tuman qishloq xo'jaligi bo'limi (F.Reyimbayev):

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23 noyabrdagi PQ-20-sonli qarorining 1.1-ilovasiga muvofiq fermer xo'jaliklari va klasterlar foydalanishidagi past hosilli paxta va g'alladan qisqartirilgan ekin maydonlarini 2022-2025-yillarda bosqichma-bosqich zaxiraga qaytarish;

zaxiraga qaytarilgan yer maydonlarini dehqon xo'jaligi tashkil etgan holda sabzavotchilik, poliz, dukkakli, moyli ekinlar, kartoshka yetishtirish kabi loyihalarni amalga oshirish **uchun fuqarolarga 0,10 gektardan 1 gektargacha bo'lgan o'lchamlarda** ochiq elektron tanlov orqali 10 yilga ijaraga berish ishlarini belgilangan tartibda tashkil etsin.

4. Tuman hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari (S.Urunbayev), tuman qishloq xo'jaligi bo'limi (F.Reyimbayev), tuman Moliya bo'limi (A.Mambetsaburov) va Kadastr agentligining tuman bo'limi (T.Allabergenov) bilan birgalikda:

2021 yil 31 dekabrga qadar tuman hisobidagi bo'sh turgan va zaxiradagi qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarining davlat mulki sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazsin;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 23 noyabrdagi PQ-20-sonli qarorining 1.1-ilovasida ko'rsatilgan yer maydonlarini **tegishli yildagi hosili yig'ib olingandan keyin** tuman hokimligi zaxirasiga belgilangan tartibda qaytarilishi va davlat mulki sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazsin;

zaxiraga olingan yer uchastkalarini davlat mulki sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazish ishlari tuman hokimligi buyurtmasiga asosan amalga oshirilishini hamda tuman mahalliy byudjet mablag'i hisobidan moliyalashtirsin;

davlat mulki sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan yer maydonlarining 0,10 gektardan 1,0 gektargacha bo'lgan hajmlarda lotlarga ajratilib, bir oy ichida ochiq elektron tanlovga qo'ysin;

yer to'g'risidagi qonunchilik va ijara shartnomasi talablari bajarilmaganda, jumladan, ijaraga berilgan yer uchastkasidan oqilona foydalanilmaganda yerga bo'lgan huquq Yer kodeksi va "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi Qonunga asosan bekor qilinishi haqida dehqon xo'jaliklari

orasida tushuntirish ishlarini olib borish topshirilsin;

Mazkur topshiriq ijrosini o'z vaqtida ta'minlamagan tashkilot rahbarlari qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortilishi haqida ogohlantirilsin.

5. Tuman hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari (S.Urunbayev), tuman qishloq xo'jaligi bo'limi (F.Reyimbayev), tuman fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi (J.Shamuratov):

yer uchastkalari ajratilgan dehqon xo'jaliklari tomonidan bog' va ekinlarning o'z muddatida ekilishi va parvarish qilinishiga ko'maklashish bo'yicha ishlarni **manzilli tashkil etish**;

ajratilgan yer maydonlarining tuproq sharoiti, yer ball boniteti, suv bilan ta'minlanganlik darajasi, hudud aholisining tajribasidan kelib chiqqan holda **“Bir hudud-bir mahsulot”** tamoyili asosida mahsulot yetishtirishga asosiy e'tibor qaratish;

yer maydonlarida zarur agrotexnik tadbirlarni bajarish, o'g'it va suv bilan ta'minlash, infratuzilma obyektlarini yaratish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;

O'simliklar karantini va himoyasi agentligi bilan birgalikda yer maydonlarida zararkunandalar hamda kasalliklar tarqalishining oldini olish maqsadida tizimli kuzatuvlarni tashkil etib, dehqon xo'jaliklariga bog' va ekinlarni himoya qilish ishlarini o'z vaqtida bajarishda amaliy yordam ko'rsatish;

dehqon xo'jaliklari bilan agrosanoat klasterlari, tayyorlov, qayta ishlash va eksport qiluvchi korxonalar o'rtasida kooperatsiya aloqalarini tashkil etishga alohida e'tibor qaratish;

dehqon xo'jaliklari va ular bilan kooperatsiya asosida ish tashkil etgan tadbirkorlik subyektlari o'rtasida urug'lik, ko'chat, mineral o'g'it va kimyoviy vositalar yetkazib berish, zaruriy agrotexnik xizmatlar ko'rsatish ishlarini tashkil etishda shartnomaviy munosabatlarni rivojlantirishga ko'maklashish;

qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yig'ish, tashish, saqlash, qayta ishlash va sotishning barcha bosqichlarini qamrab olgan kichik agrologistika markazlari faoliyatini yo'lga qo'yish choralari ko'rish topshirilsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari S.Urunbayev zimmasiga yuklatilsin.

Beruniy tumani hokimi



A.Saparbayev